



UO‘T: 504.6:62/69; 504.5/.6(1/9)

OQSOQOTA DARYOSI SUVNI MUHOFAZA QILISH ZONASI YERLARINING MONITORINGI

Mengliqulov Erkin Eshdavlatovich

“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada Toshkent viloyatidagi Oqsoqota daryosi suvni muhofaza qilish zonasi yerlarining monitoringi natijalariga oid ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotlar tahlil qilingan va tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Oqsoqota daryosi, suvni muhofaza qilish zonasi, sohil bo‘yi mintaqasi, suv sathi chizig‘i, daryo o‘zani, yer maydoni, yerdan foydalanuvchi (lar), ekin yerlari, tomorqa yerlari, kontur, yer tuzish loyihasi.

Kirish. Hamma suvlar (suv obyektlari) aholi sog‘lig‘iga zarar yetkazishi, shuningdek baliq zaxiralarining kamayishi, suv ta’minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyati kamayishi, suvning gidrologik va gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko‘ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollaridan muhofaza qilinishi kerak [1].

Suv obyektlarining bulg‘anishi, ifloslanishi, qurib qolishi va tuproq eroziyasi mahsulotlari bilan loyqa bosishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, shuningdek, qulay suv rejimini saqlash, suv obyektlaridan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish hamda ta’mirlash va tiklash ishlarini olib borish uchun normal shart-sharoit yaratish maqsadida qonunchilikka muvofiq suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonaları belgilanadi va ulardan sohil bo‘yi mintaqalari uchun yer maydonlari ajratiladi [2].



Suvni muhofaza qilish zonalarini – suv obyektlarining sanitariya holatini zarur darajada saqlash, suvning ifloslanishi, bulgʻanishi hamda suv obyektlarini tuproq eroziyasi mahsulotlari bilan loyqa bosishining oldini olish, shuningdek, qulay suv rejimini tashkil etish va ushlab turish maqsadida maxsus foydalanish rejimi va xoʻjalik faoliyati yuritish oʻrnatiladigan suv obyektlarining oʻzanlari yoki atrofiga tutash tabiiy hududlardir [2].

Yer monitoringi yer fondidagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida uning holatini kuzatib borish tizimidan iborat. Oʻzbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanilish maqsadi va xarakteridan qatʼi nazar, monitoring obyekti hisoblanadi [3].

Mavzuning dolzarbligi. Global iqlim oʻzgarishlari, mamlakat aholisi sonining oʻsishi, milliy iqtisodiyot turli tarmoqlarining jadal rivojlanishi hamda ulardagi suvga boʻlgan talablarning oʻsishi sababli respublikada suv resurslari taqchilligi yildan-yilga ortib bormoqda [4].

Suv isteʼmolining koʻpayishi va manbalarning ifloslanishi chuchuk suv zahiralarining kamayishiga hamda suv tanqisligi va qurgʻoqchilik xavfining sezilarli darajada oshishiga olib keladi [4].

Shu jihatdan suv obyektlarining bulgʻanishi, ifloslanishi, qurib qolishi va tuproq eroziyasi mahsulotlari bilan loyqa bosishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, shuningdek, qulay suv rejimini saqlash, suv obyektlaridan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash va taʼmirlash ishlarini olib borish uchun normal shart-sharoit yaratish maqsadida suv obyektlarining muhofaza zonalarini belgilash hamda muhofaza zonasi belgilangan yerlardagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash va ularga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida ularning holati boʻyicha tizimli kuzatuvlarni tashkil etish suv obyektlarini muhofaza qilish yoʻnalishidagi doimiy dolzarb masalalardan hisoblanadi [5].

Tadqiqot obyekti va uslublari: Toshkent viloyatidagi Oqsoqota daryosi suvni muhofaza qilish zonasining yerlari tadqiqot obyekti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrda 496-son [qarori](#) bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida Yer monitoringi to'g'risida"gi Nizom, "O'zbekiston Respublikasida yerlarni inventarizatsiya (yo'qlama) qilish bo'yicha ko'rsatmalar" VNA-32-003-09 (Toshkent-2009y), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan "Yer resurslarini xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda 981-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risida"gi Nizomlar tadqiqot uslublari asosini tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Oqsoqota daryosining suvni muhofaza qilish zonasini belgilash maqsadida 2022-yilda tadqiqot obyekti hududida yer tuzish loyiha qidiruv ishlari bajarildi. Loyiha qidiruv ishlari jarayonida olingan natijalar, shuningdek, turli manbalardagi Oqsoqota daryosiga oid ma'lumotlar o'rganildi, tahlil qilindi va tizimlashtirildi.

Oqsoqota daryosi – Toshkent viloyatidagi soylardan biri. Chirchiq daryosining yirik chap irmog'i. [Chatqol tog' tizmasining](#) janubi-g'arbidan (2200 m) boshlanadi va Barraj yaqinida Chirchiq daryosiga quyiladi. Uzunligi 55,1 km, havzasining maydoni 453 km². [Suv](#) yig'ilish maydonining o'rtacha balandligi 1840 m. Yuqori qismida tor va chuqur vodiya oqadi. [Chirchiq vodiysi](#) tekisligiga chiqiladigan quyi qismida esa [daryo](#) vodiysi kengayadi. Eng yirik irmoqlari: Beldersoy va Nurakotasoy. Qor-yomg'ir suvlaridan to'yinadi. [To'lin suv davri](#) aprel-iyunda, eng katta suv sarfi esa [may](#) oyida kuzatiladi. [Iyul](#)-oktyabr oylarida suvi kamayadi. O'rtacha [oqim](#) moduli 14 l/sek. km². Eng ko'p suv sarfi 72,1 m³/sekund (may oyida), eng [kam](#) suv sarfi 1,1 m³/sekund (iyul-oktyabr oylarida). Oqsoqota daryosi oqimi

boshlanishidan Chirchiq daryosiga qo‘shilgunga qadar Parkent (34,3 km) va Bo‘stonliq (20,8 km) tumanlari hududidan oqib o‘tadi [4; 6; 7].

2022-yilda o‘tkazilgan loyiha qidiruv ishlari jarayonida Oqsoqota daryosining umumiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, suvni muhofaza qilish zonasi suv sathi chizig‘idan 300 metr, sohil bo‘yi mintaqasi 45 metr masofada belgilashga doir yer tuzish loyiha hujjatlari va takliflar tayyorlanib, tasdiqlash uchun Toshkent viloyat hokimligiga taqdim etildi. Taqdim etilgan loyiha hujjatlari Toshkent viloyati hokimligining vakolatli organlari tomonidan ko‘rib chiqilib, Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 23 yanvardagi 26-10-0-Q/23-sonli qarori bilan tasdiqlandi [4; 7].

Daryoning suvni muhofaza qilish zonasiga tushgan yerlar yer turlari bo‘yicha tumanlar, yerdan foydalanuvchilar va konturlar kesimida yo‘qlamadan o‘tkazildi. Yo‘qlama natijalariga ko‘ra:

Oqsoqota daryosining suvni muhofaza qilish zonasi joylashgan konturlar soni 493 ta, shundan 157 tasi Parkent tumani va 336 tasi Bo‘stonliq tumani;

Umumiy maydoni 3293,07 gektar, shundan 1968,05 gektari Parkent tumani va 1325,02 gektari Bo‘stonliq tumani;

Ekin yerlari – 50,47 gektar, shundan 9,23 gektari Parkent tumani va 41,24 gektari Bo‘stonliq tumani;

Bog‘lar – 73,63 gektar, shundan 10,39 gektari Parkent tumani va 63,24 gektari Bo‘stonliq tumani;

Tutazorlar – 1,88 gektar, shundan 1,88 gektari Bo‘stonliq tumani;

Bo‘z yerlar – 0,53 gektar, shundan 0,53 gektari Parkent tumani;

Yaylovlar – 2154,83 gektar, shundan 1411,83 gektari Parkent tumani va 743 gektari Bo‘stonliq tumani;

Tomorqa yerlari – 187,74 gektar, shundan 187,74 gektari Bo‘stonliq tumani;

Bog‘dorchilik uzumchilik shirkatlarining yerlari – 16,65 gektar, shundan 16,65 gektari Bo‘stonliq tumani;



O'rmonzorlar – 511,39 gektar, shundan 459,39 gektari Parkent tumani va 52 gektari Bo'stonliq tumani;

Suv osti yerlari – 57,53 gektar, shundan 30,06 gektari Parkent tumani va 2747 gektari Bo'stonliq tumani;

Yo'llar va mol haydab o'tish joylari – 56,86 gektar, shundan 39,97 gektari Parkent tumani va 16,89 gektari Bo'stonliq tumani;

Ko'chalar, qurilishlar, saroylar va maydonlar – 77,53 gektar, shundan 77,53 gektari Bo'stonliq tumani;

Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar – 104,03 gektar, shundan 19,21 gektari Parkent tumani va 84,82 gektari Bo'stonliq tumani hududlariga to'g'ri kelishi aniqlandi [4; 7].

Xulosa. Olingan natijalar Oqsoqota daryosining suvni muhofaza qilish zonasi va sohil bo'yi mintaqasi tabiiy ekologik barqarorligini ta'minlash va havza hududi atrofida belgilangan tartibda yerdan foydalanishni tashkil etishga xizmat qiladi hamda suvni muhofaza qilish zonasi va sohil bo'yi mintaqasi belgilangan hududlar yer maydonlarining doimiy monitoringini tashkil qilib, bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish hamda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy jarayonlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi qonuni (97-modda).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda “O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 981-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrda “O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 496-son qarori.

4. Parpiev G.T., Mengliqulov E.E. “Oqsoqota daryosining suvni muhofaza qilish zonasi va sohil bo‘yi mintaqasi monitoringiga oid dastlabki natijalar”.

// “Agrokimhimoya va o‘simliklar karantini” ilmiy-amaliy jurnali. 2023-yil, 6-son. B.181-185.

5. Mengliqulov E.E. “Ugam daryosi suvni muhofaza qilish zonasi yerlarining monitoringi”. “Erlar degradatsiyasiga qarshi kurashning intensiv va innavsion yechimlari, yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirish”. Xalqaro anjuman maqolalar to‘plami. Toshkent 2025 yil 22 aprel. B. 155-164.

6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi “O” harfi, B. 320.

7. Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 23-yanvardagi “ Toshkent viloyatidagi Ugam va Oqsoqota daryolari hamda Dukuentsoy, Qizilsoy va Parkentsoy soylarining suvni muhofaza qilish zonalari hamda sohil bo‘yi mintaqalarini belgilash natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 26-10-0-Q/23-sonli qarori.

